
Fanlar akademiyasi prezidenti Seysmologiya instituti jamoasi bilan uchrashdi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.Yuldashev, vitse-prezident S.Mirzayev hamda Fizika-matematika va texnika fanlari bo’limi rahbari-ilmiy kotib, S.Baxramovlar Seysmologiya institutiga tashrif buyurdi va kapital ta’mirlangan Institut binosi hamda laboratoriyalari bilan yaqindan tanishdilar. Yangi o’rnatilayotgan laboratoriya asbob-uskunalarini, Institut kutubxonasi, o’quv va konferents zallarini ko’zdan kechirdilar.

So’ngra, Institut jamoasi bilan uchrashuv o’tkazildi. Unda FA prezidenti Davlatimiz Rahbari tashabbuslari bilan ilm-fanni rivojlantirish, olimlarga qulay shart-sharoitlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlari haqida gapirar ekan, barcha imkoniyatlarni ishga solib, mamlakat qudratini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqot natijalarini taqdim etish Fanlar akademiyasi olimlarining eng muhim vazifasi ekanligini ta’kidladi.





Shuningdek, uchrashuv davomida Prezident va hukumat qarorlari ijrosi, mustaqillikning 30 yilligiga munosib tayyorgarlik ko’rish, yoshlar faoliyatini qo’llab-quvvatlash, gender tenglik masalalari ham muhokama qilindi. Shundan so’ng, Institut jamoasi FA prezidentiga o’zlarini qiziqtirgan savollari va takliflari bilan murojaat qilishdi.